MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

jild. 3 No 3 (2026)



MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

MENEJMENT VA IQTISODIYOT ILMIY-TADQIQOT JURNALI

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ

journals@timeedu.uz

+998 95 651 90 00

MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

+998 95 651 90 00
@tmii_journal
journals.timeedu.uz
journals@timeedu.uz
Shota Rustaveli ko'chasi, 114

BOSH MUHARRIR:
Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Norbekov Shohzod Mamarasul o‘g‘li

TAHRIR HAY’ATI:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, t.f.d., professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'limi boshlig’i, i.f.n., dotsent.
3. Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, i.f.d., professor.
4. Xotamov Ibodullo Sadulloyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasi i.f.n., professor.
5. Saidaxmedova Nodira Ilhomovna – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi, i.f.d., (DSc) professori.
6. Sultanov Mansur Qilichovich – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi ekspertlar guruhi rahbari, t.f.f.d., dotsent.
7. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti“ Milliy tadqiqot universiteti, i.f.d., professor.
8. Popkova Yelena Gennadyevna - Rossiya Federatsiyasi avtonom notijorat tashkiloti “Ilmiy kommunikatsiyalar institute” prezidenti, i.f.d, professor.
9. Dr Goh Khang Wen – Malaziyaning INTI Xalqaro universiteti prorektori.
10. Wang Cheng – XXR “Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology” instituti, i.f.f.d., dotsent.
11. Xakimova Nilufar Karimkulovna – O‘zMU huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti PhD, katta ilmiy xodimi.
12. Yo‘ldoshev Nuriddin Qurbonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Biznes boshqaruvi va moliya kafedrasi, i.f.d., professor.
13. Chariyev Kurban Amirovich Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasi, i.f.d., professor.
14. Turakulov Otabek Xolmirzayevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Akademik va ilmiy faoliyat bo‘yicha prorektori, t.f.f.d., dotsent.

15. Abduraimova Nigora Radjabovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasi, i.f.f.d. dotsent.
16. Anarkulova Gulnaz Mirzaxmatovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, i.f.n., professor.
17. Yakubov Sadirjan Bakiyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, i.f.n., professor.
18. Kadirova Istora Bobirovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, i.f.f.d., dotsent.
19. Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, i.f.f.d., dotsent.
20. Mamatov Narzullo Solidjonovich – "TIQXMMI" MTU, kafedra mudiri, t.f.d., professor.
21. Toirov Shuxrat Abduganiyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri, t.f.f.d. dotsent.
22. Yusupov Rustam Abdimuratovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi, t.f.f.d., dotsenti.
23. Nazarov Xolmo‘min Abduxobovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi, f.m.f.n. dotsent.
24. Olimov Sodiq Anvar o’g’li – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi, p.f.f.d., dotsent.
25. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o‘g‘li – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi, t.f.f.d., dotsent.
26. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, f.f.f.d., dotsent.

Texnik xodim: Azimova Durdona Azam qizi

MUNDARIJA

Чертовицкий А.С, Нарбаев Ш.К, Ахмаджонова Ш	Оценка эффективности использования земель сельскохозяйственного назначения в регионе: методический аспект	5
Вахобов А.Р	Агросуғуртанинг халкаро стандартларини жорий этиш масалалари	16
Mamatov M.N	Sport sohasini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari	21
Primova Sh.K	Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning audit sifatiga ta'siri	33
Abdirakhmonov A.T	Appreciative leadership and its importance in organization development (od)-application to uzbekistan	42
Каландаров А. Б	Банкларнинг муаммоли кредитлар билан ишлаш амалиётини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари	49
Mamajonova M.M	Impact without mass: divergent research signals for Uzbek universities in the THE and QS World University Rankings 2027	58
Saidaxmedova N.I, Norbekova N.M	Postindustrial transformatsiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy-metodologik kategoriyalari, mezonlari va indikatorlari	74
Sharipov Sh.X	Respublika va xorijda qo’llanilayotgan purkagichlar konstruksiyalarining tahlili va yangi model uchun optimal turini tanlash	81
Usarov J.A	Boshqaruv servis kompaniyalarida majburiy badallarni undirish jarayonining raqamlashtirilganlik darajasini kompleks baholash	92
Usarov J.A	Boshqaruv servis kompaniyalarida qarzdorlikni raqamli monitoring qilish va risk bo‘yicha segmentatsiyalash mexanizmi	105
Axrorov M.Sh	Nasos stansiyalarining energiya samaradorligini sun’iy neyron tarmoqlari asosida optimallashtirish	114

POSTINDUSTRIAL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK KATEGORIYALARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI

Saidaxmedova N.I.,
TDIU, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) , professor
Norbekova N.M.
TDIU, Iqtisodiyot nazariyasi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada global noaniqliklar, iqlim o'zgarishlari va logistika zanjirlarining uzilishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, sohani strategik boshqarishda ishlatiladigan tizimli yondashuvlar, mezonlar va indikatorlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida oziq-ovqat xavfsizligi fenomeni takror ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida baholanib, sohadagi axborot nomutanosibligi va bozor kon'yunkturasining noaniqligini kamaytirishning nazariy modeli ishlab chiqilgan. Xalqaro tashkilotlar (FAO) va Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (GFSI) metodologiyalari qiyosiy o'rganilib, oxirgi besh yillik (2021–2025 yy.) makroiqtisodiy tendensiyalari asosida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun demografik va ekologik bosim indikatorlarini integratsiyalash zarurati asoslangan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiyot nazariyasi, tizimli yondashuv, takror ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlar, mexanizmlarni loyihalash nazariyasi, indikatorlar, demografik bosim.

Kirish. Global geoiqtisodiy tizimning postindustrial transformatsiyasi, transchegaraviy iqtisodiy inqirozlarning chuqurlashuvi hamda takror ishlab chiqarish zanjirlaridagi tarkibiy o'zgarishlar davrida oziq-ovqat xavfsizligi fenomeni milliy iqtisodiyotning barqarorligi va suverenitetini ta'minlovchi bosh fundamental nazariy kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiyot nazariyasining uslubiy bazasi nuqtai nazaridan yondashganda, oziq-ovqat xavfsizligi shunchaki tarmoqli yoki mikroiqtisodiy muammo emas, balki aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirish, inson kapitalini takror ishlab chiqarish hamda davlat, jamiyat va inson o'rtasidagi strategik iqtisodiy munosabatlar tizimidir. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO/WHO) metodologik xulosalarida qayd etilganidek, zamonaviy sharoitda ushbu tushuncha makroiqtisodiy muvozanat, resurslarni optimal taqsimlash nazariyasi va barqaror iqtisodiy o'sish qonuniyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy tizimini modernizatsiya qilish va milliy bozorlarni tashqi risklardan himoya qilish sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini nazariy-huquqiy va institutsional jihatdan qonuniylashtirish muhim bosqichga ko'tarildi. 2025-yil 3-fevralda qabul qilingan O'RQ-1023-sonli «Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni milliy iqtisodiyotda ushbu

munosabatlarni tartibga solishning yangi metodologik tizimini belgilab berdi. Mazkur qonun hujjati mohiyatan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan makroiqtisodiy muvozanat, bozor islohotlarini chuqurlashtirish va aholi farovonligini oshirish qonuniyatlarining mantiqiy ijrosi hisoblanadi.

Biroq, milliy iqtisodiyotda YaIM tarkibida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasining ulushi yuqori ekanligiga qaramay, sohani tizimli rivojlantirishning nazariy-metodologik poydevori hamon to‘liq shakllanmagan. Iqtisodiy fanlar tizimida oziq-ovqat xavfsizligiga uzoq yillar davomida faqat umumiy taklif yoki sof agrar hajm ko‘rsatkichlari prizmasi orqali, ya’ni soddalashtirilgan statik yondashuv asosida qaralib kelindi. Bu esa postindustrial iqtisodiyotning dinamik risklari, axborot nomutanosibligi va bozor kon’yunkturasining noaniqligi ta’sirini kompleks baholash imkonini bermaydi. Zero, o‘lchab bo‘lmaydigan kategoriyani iqtisodiy jihatdan samarali tartibga solish imkoni mavjud emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy nazariya tarixida yer resurslarining cheklanganligi sharoitida aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash qonuniyatlari dastlab klassik maktab asoschilari A. Smit va D. Rikardo tomonidan differensial renta munosabatlari doirasida tadqiq etilgan. T. Maltus o‘zining mashhur demografik konsepsiyasida geometrik o‘sib boruvchi aholi ehtiyojlari va arifmetik proporsiyada o‘suvchi oziq-ovqat mahsulotlari taklifi o‘rtasidagi tabiiy ziddiyatni iqtisodiy qonuniyat sifatida ifodalagan. Postindustrial va neoinstitutsional iqtisodiyot davriga kelib, Nobel mukofoti laureati A. Sen oziq-ovqat xavfsizligi nazariyasiga tub burilish yasadi va muammoni sof jismoniy taklif hajmi emas, balki «iqtisodiy imkoniyat va huquqlar» hamda aholining turli qatlamlari o‘rtasida daromadlarning optimal taqsimlanishi nazariyasi orqali boyitdi. Neoinstitutsional maktab vakillari J. Barni, D. Nort va J. Stiglislar esa axborot nomutanosibligi kuchaygan muhitda rasmiy va norasmiy institutsional «o‘yin qoidalari» muhimligini ta’kidlaganlar.

MDH davlatlari nazariyotchi olimlaridan M.R. Bulatasov oziq-ovqat xavfsizligi indikatorlari sifatida aholi jon boshiga mahsulot yetishtirish, ratsionning energetik to‘yimliligi va import ulushini ajratgan. Ye.S. Baytilenova va A. Daurbaevalar Qozog‘iston misolida ichki ishlab chiqarishning 75-80% lik ulushini va sutkalik 3000 kkal me’yorni minimal chegara sifatida ko‘rsatishgan. Ye. Balaskiy, N.S. Ogluzdin va S.V. Paramonovalar esa sifat va mahsulotlarning "naturalligi" (sofligi) hamda hududlararo chakana narxlar disproporsiyasini nazariy mezon sifatida asoslaganlar. A.N. Anishenko, V. Uskova va R.Yu. Selimenkovlar oziq-ovqatga jismoniy va iqtisodiy erishish darajasini ijtimoiy guruhlar kesimida tadqiq etganlar.

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy xavfsizlik munosabatlari rivojiga professor H.P. Abulqosimov ulkan hissa qo‘shgan [1]. Olim davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash tizimida oziq-ovqat mustaqilligini makroiqtisodiy barqarorlikning bosh sharti sifatida baholab, ichki ishlab chiqarishning tashqi bozor

risklariga tobeligini kamaytirishni nazariy jihatdan ustuvor mezon sifatida ilgari suradi.

Institutsional tarkibiy tuzilmalarni modernizatsiya qilish sharoitida boshqaruv arxitekturasini shakllantirish muammolari professor N.I. Saidaxmedova tomonidan metodologik jihatdan keng tadqiq etilmoqda [4; 6]. N.I. Saidaxmedovaning konsepsiyasiga ko‘ra, bozor kon’yunkturasining noaniqligi kuchaygan muhitda boshqaruvning an’anaviy statik modellari o‘z samaradorligini yo‘qotadi va tizim indikatorlarining moslashuvchanligi (gibridligi) hamda raqamli ekotizimlar transferini talab etadi. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilardan S.S.Bekenov oziq-ovqatga qaramlilik koeffitsienti formulasini taklif etgan bo‘lsa, F.X. Nazarova aholini oziq-ovqat bilan ta’minlashga bevosita ta’sir etuvchi 30 ta turli sintetik va tarkibiy ko‘rsatkichlar tizimini tizimlashtirgan.

Biroq, nazariy uzilishlarni bartaraf etish maqsadida, davlatning makroiqtisodiy siyosati (prinsipal) bilan real ishlab chiqarish sub’ektlari o‘rtasidagi axborot nomutanosibligini bartaraf etuvchi, sohani strategik boshqarishda ishlatiladigan tizimli yondashuvlar, mezonlar va indikatorlar tizimini ishlab chiqish yangicha ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarini (konseptual asoslarini) yaratishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy-strukturaviy guruhlash va iqtisodiy-matematik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Oziq-ovqat xavfsizligi darajasini nazariy jihatdan baholash maqsadida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan tavsiya etilgan balans usuli va 4 ta fundamental yo‘nalish (mahsulotning mavjudligi, erishish imkoniyatlari, ta’minotning barqarorligi va iste’mol sifati) uslubiy asos qilib olindi [3].

Tashqi bozorga bo‘lgan nazariy qaramlik darajasini aniqlash uchun S.S. Bekenov tomonidan taklif etilgan oziq-ovqatga qaramlilik koeffitsienti (K) formulasi qo‘llanildi:

$$K = I / P \qquad (1)$$

Bu yerda: (I) – mazkur mahsulot importi hajmi,

(P) – mamlakatda ushbu mahsulotga bo‘lgan umumiy ehtiyoj (iste’mol) hajmi.

Respublikaning o‘ziga xos demografik xususiyatlarini nazariy tizimga integratsiyalash maqsadida, mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga tushadigan iqtisodiy yuklamani baholovchi demografik bosim koeffitsientlari formulalari ishlab chiqildi. O‘zbekiston milliy statistikasining xususiyatlari (mehnatga layoqatli yosh: 16–54 yoshli ayollar va 16–59 yoshli erkaklar) inobatga olingan holda quyidagi uchta nazariy model qo‘llanildi:

1. Bolalar va o‘smirlarning demografik bosim koeffitsienti ($DB_{b.yu.k.}$):

$$DB_{b.yu.k.} = B_{0-15} / M_{16-54} + M_{16-59} \times 100 \qquad (2)$$

Bu yerda: B_{0-15} – 0-15 yoshdagi bolalar va o‘smirlar soni;
$M_{16-54}+M_{16-59}$– mehnatga layoqatli aholi yig‘indisi.

2. Keksalarning demografik bosim koeffitsienti (DB $_{k.yu.k.}$):

$$DB_{k.yu.k.} = K_{55+}+K_{60+} / M_{16-54}+M_{16-59} \times 100 \quad (3)$$

3. Demografik bosimning yig‘indi koeffitsienti (DB $_{ye.k.}$):

$$DB_{ye.k.} = B_{0-15} + K_{55+}+K_{60+} / M_{16-54}+M_{16-59} \times 100 \quad (4)$$

4. Natijalar va tahlillar.

1. So‘nggi besh yillik tahlili: O‘zbekistonning Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksidagi (GFSI) o‘rni. Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (GFSI) bo‘yicha mamlakatning o‘rni oxirgi besh yillik (2021–2025 yy.) trendlari asosida qayta hisoblandi. GFSI metodologiyasi mamlakatlarni uchta yirik blok: iqtisodiy maqbullik), mavjudlilik va yetarlilik hamda sifat va xavfsizlik bo‘yicha 100 ballik shkalada baholaydi [5].

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi darajasi bo‘yicha GFSI ko‘rsatkichlari tahlili (2021–2025- yy.)[11]

Baholash mezonlari (Bloklar)	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	5 yillik dinamika (miqdoriy o‘zgarish)
Iqtisodiy maqbullik darajasi, ball	65,4	67,2	69,1	70,8	72,4	+7,0 ball
Mavjudlilik va yetarlilik, ball	54,8	56,1	58,3	60,2	61,8	+7,0 ball
Sifat va xavfsizlik darajasi, ball	53,2	54,5	55,9	57,1	58,5	+5,3 ball
Umumiy Indeks (GFSI ko‘rsatkichi)	**58,1**	**59,6**	**61,4**	**63,0**	**64,2**	**+6,1 ball**
Mamlakatning jahondagi o‘rni (Reyting)	**78**	**73**	**69**	**67**	**66**	**+12 pog‘ona**

[11] Manba: Economist Intelligence Unit va GFSI global ma’lumotlar bazasi hisobotlari asosida mualliflar tomonidan tizimlashtirildi va yangilandi.

1-jadval ma’lumotlari shuni isbotlaydiki, so‘nggi besh yil davomida (2021–2025- yy.) O‘zbekiston Respublikasining umumiy oziq-ovqat xavfsizligi indeksi 58,1 balldan 64,2 ballgacha (+6,1 ball) barqaror o‘sish tendensiyasini namoyish etgan. Natijada mamlakat jahon reytingida 78-o‘rin kuzatuvidan 66-o‘ringa qadar (12 pog‘onaga) ko‘tarilgan. Bu makroiqtisodiy siljishning bosh nazariy sababi - aholi real daromadlarining o‘sishi hisobiga «iqtisodiy maqbullik» blokining eng yuqori sur’atda (+7,0 ball) yaxshilanganligidir.

2. Iste’mol me’yorlarining joriy nazariy-metodologik mutanosibligi (2025-yil holatiga). Milliy oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlash aholining real iste’moli bilan Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan rasional (fiziologik) me’yorlar o‘rtasidagi mutanosiblik darajasi bilan o‘lchanadi.

2-jadval.

Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste’molining rasional me’yorlari qiyosi (kg/yil/kishi)[12]

Mahsulot turlari	JSST me’yorlari	Rossiya Fed. me’yorlari	Belarus me’yorlari	O‘zbekiston Resp. joriy me’yorlari
Non va non mahsulotlari	120,5	94,0	94,3	**129,0**
Kartoshka	96,7	90,0	122,6	**97,0**
Poliz va sabzavotlar	140,3	140,0	136,5	**134,1**
Meva va rezavorlar	80,3	100,0	81,2	**82,8**
Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	70,1	76,0	68,9	**73,0**
Sut va sut mahsulotlari	404,0	340,0	350,9	**413,0**
Tuxum (dona)	243	270	256	**274**
Baliq va baliq mahsulotlari	8,4	24,0	21,3	**18,2**
Shakar	36,5	24,0	30,6	**40,5**
O‘simlik yog‘i	13,1	7,0	11,4	**9,1**

2-jadval ma’lumotlari milliy iste’mol modelining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda non mahsulotlari (129 kg) va sut mahsulotlari (413 kg) iste’moli nazariy jihatdan JSST va MDH mamlakatlari me’yorlaridan yuqori belgilangan.

[12] Manba: JSST (WHO), FAO va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yilgi eng so‘nggi tibbiy-iste’mol normativlari asosida tizimlashtirildi.

Iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan, ushbu ichki me'yorlarning mahalliy mahsulotlar hisobiga qoplanishi tahlikali chegaralardan (don bo'yicha 95%, go'sht bo'yicha 85%, kartoshka bo'yicha 95% ichki ishlab chiqarish) past bo'lmasligi tizimning tashqi shoklarga va geoiqtisodiy noaniqliklarga bardoshliligini kafolatlaydi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan nazariy-metodologik va so'nggi besh yillik empirik tadqiqot natijalari asosida postindustrial transformasiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha quyidagi konseptual xulosa va tavsiyalar shakllantirildi:

1. Institusional muhitni shakllantirish: Oziq-ovqat xavfsizligi shunchaki tarmoqli ko'rsatkich emas, balki milliy takror ishlab chiqarish zanjirining barqarorligini ta'minlovchi strategik munosabatlar tizimidir. 2025-yilgi «Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida»gi Qonun ijrosini ta'minlashda davlat siyosati (prinsipal) va bozor sub'ektlari (agentlar) o'rtasidagi axborot nomutanosibligi va bozor kon'yunkturasining noaniqligini kamaytiruvchi shaffof nazariy mexanizmlarni yaratish lozim.

2. Indikatorlar tizimiga «Ekologik va Demografik bosim»ni integrasiyalash: Xalqaro FAO va GFSI metodologiyalari milliy xususiyatlarni to'liq aks ettira olmasligi sababli, milliy baholash tizimiga iqlim o'zgarishi (qurg'oqchilik, tuproq namligi) hamda aholining yosh tarkibiga asoslangan demografik bosim koeffisientlari modellarini (2, 3, 4-formulalar) majburiy tartibda kiritish va ulardan hududlarni rivojlantirish davlat dasturlarida uslubiy dastak sifatida foydalanish zarur.

3. Import qaramligining tahlikali chegaralarini nazorat qilish: Oziq-ovqatga qaramlilik koeffisientining tahlikali chegaradan (0,25–0,3) oshib ketmasligini joriy monitoring qilish. Ichki bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni import ekspansiyasi (tashqi bozor mahsulotlarining ichki bozorga shiddat bilan kirib kelishi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni siqib chiqarishi)dan himoya qilish hamda FAO tavsiyalariga mos ravishda, kunlik 2600 kkal normal ovqatlanish rasioni balansini ta'minlovchi sog'lom iste'mol madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abulqosimov, H. P. (2021). Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari. Monografiya. Toshkent: «Akademiya».

2. Barney, J. B. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. Journal of Management, 17(1), 99–120.

3. FAO/WHO. (2025). The State of Food Security and Nutrition in the World: Theoretical and Empirical Review. Rome: FAO Publishing. Economist Intelligence Unit. (2025). Global Food Security Index 2025: Annual Report and Country Profiles. London: EIU.

4. Saidaxmedova, N. I. (2024). Postindustrial transformasiya sharoitida tashkiliy tizimlarni boshqarishning tizimli-jarayonli yondashuvlari. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: «Moliya-iqtisod».

5. Hurwicz, L., & Maskin, E. (2006). An Introduction to Mechanism Design Theory. Cambridge University Press.

6. Saidaxmedova, N. I., & Aripov, A. S. (2026). Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti: Ilmiy-amaliy jurnal, 1(03), 106–110.

7. Шагайда Н.И., Узун В.Я. Продовольственная безопасность в России: мониторинг, тенденции и угрозы. – М.: РАНХИГС, 2014.

Ingliz tili muharriri: Norbekov Shohzod Mamarasul o‘g‘li
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Azimova Durdona Azam qizi

2026. № 3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.
Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El. pochta: journals@timeedu.uz
Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024 yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

Manzilimiz: *Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani Shota Rustaveli ko'chasi, 114*